



HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY DRAMATURGIYASIDA KOMEDIYA
VA IJTIMOIIY MUAMMOLAR TALQINI

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti O‘zbek tili yo‘nalishi

3-bosqich talabasi Abdumo‘nina Qunduzabonu

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziy dramaturgiyasining muhim jihatlari, xususan uning komediya va dramatik asarlaridagi ijtimoiy hamda badiiy xususiyatlar tahlil qilinadi. Maqolada muallifning “Maysaraning ishi”, “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” asarlari asosida jamiyatdagi dolzarb muammolar ayollar erkinligi, majburiy nikoh, jaholat va ma’rifat masalalari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: dramaturgiya, ayollar huquqsizligi, stereotip, komediya, jaholat, “Maysaraning ishi”, “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, ilm-ma’rifat, qoloqli, teatr, drammatizm.

XX asr boshlarida o‘zbek adabiyoti tub yangilanish bosqichiga kirdi. Bu davrda jadid adabiyoti shakllanib, unda jamiyatni isloh qilish, xalqni ma’rifatga chorlash asosiy maqsadga aylandi. Shu jarayonda Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘zining dramatik asarlari, xususan komediyalari orqali o‘zbek dramaturgiyasini yangi bosqichga olib chiqdi. Uning asarlarida kulgi vositasida jamiyatdagi og‘riqli muammolar yoritildi. Hamza dramaturgiyasi nafaqat badiiy, balki kuchli ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, unda xalq hayoti, urf-odatlar, eski qarashlar va yangilik o‘rtasidagi kurash aks ettiriladi.

Hamza asarlarining asosiy yo‘nalishi — ma’rifatparvarlikdir. U jamiyatdagi jaholat va savodsizlik, diniy mutaassiblik, ayollarning huquqsizligi, eskicha urf-odatlarining zararli ta’siri kabi muammolarni ko‘taradi. Uning komediyalarida kulgi — asosiy qurol. Muallif kulgi orqali jamiyatdagi nuqsonlarni fosh etadi. Bu esa uning asarlarini xalqchil va ta’sirchan qiladi. Hamza dramaturgiyasida realizm kuchli



bo'lib, obrazlar hayotiyliigi bilan ajralib turadi. Uning qahramonlari oddiy xalq vakillari bo'lib, ular orqali jamiyatning real manzarasi aks ettiriladi.

Hamzaning eng mashhur komediyalaridan biri-“Maysaraning ishi” asaridir. Ushbu asar o'zbek dramaturgiyasida ayol obrazini markazga olib chiqqan muhim asarlardan hisoblanadi. Asarda ayollarning jamiyatdagi o'rni, ularning huquqlari va erkaklar tomonidan kamsitilishi masalasi ko'tariladi. Maysara obrazi orqali muallif ayolning nafaqat jabrdiyda emas, balki aql-zakovatli va faol shaxs ekanini ko'rsatadi. “Maysaraning ishi”da qozi, Hidoyatxon va a'lamlarga qarshi kurashuvchi, Maysara, Oyxon va Cho'ponlar ijobiy obrazlari sifatida tasvirlanadi. Komediya Maysara uddaburon va tadbirli bo'lsa, Cho'pon va Oyxon to'g'ri so'zli, or-nomusli yoshlar sifatida namoyon bo'lgan. Ular o'rtasidagi muhabbat samimiy. Sevishganlar bir-biriga vafodor yor sifatida qalamga olingan. Biz Cho'pon va Oyxon obrazi orqali, Hamzaning ishq-muhabbat masalasiga bo'lgan munosabatini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi bu tipik obrazlar orqali, oddiy mehnatkash ommaning ham muhabbatni ulug'lashi va qadrlashni ko'rsatib bergan. Ikki oshiq Maysaraning ustomonligi tufayli dushmanlaridan xalos bo'ladilar. Maysara Oyxon va Cho'ponni o'z farzandlariday ko'radi. Ularni qutqarish uchun qo'lidan keladigan barcha tadbirni amalga oshiradi. Qozi, a'lam va muftilar shoxida yursa, Maysaraxon bargida yuradi. Hamzaning mazkur asarida, Maysara, Mullado'st, Cho'pon va Oyxon obrazlari orqali, oddiy mehnatkash aholining, hozirgi zamon nuqtai nazar bilan aytganda, mansabdor shaxslar ustidan, ularga qarshi kurashda g'olib bo'lishini obrazli tarzda ifodalagan. Komediya syujet dinamikasi muhabbat (Cho'pon, Oyxon, Nodira, Tohir), do'stlik (Tohir va Cho'pon), qarindoshlik (Maysara va yoshlar), hiyla, xat, tuzoq kabi motivlar kombinatsiyasi orqali harakatlantirilgan. . “Maysaraning ishi”da din peshvolari va Maysara o'rtasida, Qozi va Nodiraning kelishmovchiliklari, Cho'pon va Qozi o'rtasidagi Matg'ozining merosi masalasida tortishuvlari shular jumlasidan. Hamza Hakimzoda Niyoziy ushbu komediya Maysara obrazini an'anaviy “itoatkor ayol” stereotipidan butunlay farqli tarzda yaratadi. Maysara – mustaqil fikrlaydi, vaziyatni tahlil qila oladi, o'z manfaatini himoya qiladi. Bu jihat uni o'zbek dramaturgiyasida ilk faol



ayol qahramonlardan biriga aylantiradi. Muallif shu orqali ayolni jamiyatning passiv emas, balki faol subyekti sifatida ko'rsatadi.

Hamzaning yana bir muhim asari — “Zaharli hayot” dramasi bo‘lib, unda jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklar fosh etiladi. Asarda majburiy nikoh, sevgi erkinligining yo‘qligi, ota-onalarning zo‘ravon qarorlari natijasida yoshlar hayotining barbod bo‘lishi tasvirlanadi. Hamzaning “Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari” asari fojeasi (tragediya, bo‘lib, 1915 yilda yozilgan va 1916 yilda) toshbosma usulda chop etilgan. Bu asar haqida o‘zbek teatr tarixchisi Miyon Buzruk Solihov shunday deb yozgan: “Bu pyesa Hakimzodaning pyesa janri ustida bergan eng oldingi asaridir: uning soddaligi va yuzakiroq chiqqan shu boshlang‘ich asar bo‘lishidan ilgari kelgan holdir, chunki, Hakimzodaning so‘nggi asarlari bu pyesaga qaraganda san‘at jihatidan ustun turadurlar”

“Zaharli hayot”ning bosh qahramonlari Mahmudxon ismli yosh yigit va uning sevgilisi Maryamxondir. Mahmudxon yangi usul maktablarida tahsil olgan zamonaviy kiyinadigan, jadidchilik harakatiga hayrihoh yigit: uning sevgilisi Maryamxon garchi eski maktablarda o‘qigan bo‘lsada Mahmudxon ta‘sirida u ham yangicha fikrlashga intiladi. Dramada jaholat, qoloqlik, mutaassiblik ilm-ma‘rifat, taraqqiyot fidoiylari Mahmudxon va Maryamxonni fojeaga olib keladi.

Asarning ikki qahramoni Maryam va Mahmud zamonasining hal qiluvchi kuchlari mutaassib kuchlarga qarshi kurashadilar. Tomonlar o‘rtasidagi kurash eng yuqori nuqtaga ko‘tariladi, ularning istiqbol haqidagi yuksak orzulari chilparchin bo‘ladi. Natijada ilojisiz qolgan yoshlar mavjud tuzumga, feodal tartiblarga, jaholatga mutaassiblarga qarshi isyon tariqasida oz jonlariga qasd qiladilar. Asardagi Mahmudxon manologlarida senlamentsollik shu darajada kuchliki, tinglovchining qalban larzaga soladi. Mahmudxonning o‘limi oldidagi monologi fojeaning asl mohiyatini yanada to‘larog‘ ochishga xizmat qiladi,

Hamza sovet mafkurasi hukmronlik qilgan davrda „o‘zbek sovet adabiyoti“ning, teatrining asoschisi sifatida ko‘kka ko‘tarilgan. U kulgi va dramatismni uyg‘unlashtirgan holda ijtimoiy tanqidni kuchli ifoda etadi. Uning asarlarida konfliktlar hayotiy va ishonarli bo‘lib, obrazlar tizimi orqali jamiyatning



turli qatlamlari real tasvirlanadi. Hamzaning dramaturgik merosi o‘zbek adabiyoti va teatrida inson qadr-qimmati va ijtimoiy adolat uchun kurashning yorqin namunasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Hamza Hakimzoda Niyoziy. Maysaraning ishi. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.
- 2.Hamza Hakimzoda Niyoziy. Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.
- 3.Abdunazarov Z. Hamza Hakimzoda Niyoziy dramaturgiyasi. – 2021.
- 4.Berdiyov Karimov. Hamza Hakimzoda Niyoziyning dramaturgiyasi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1992.
- 5.Mamatqul Jumaboyev. Hamza ijodi va o‘zbek dramaturgiyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2010.
- 6.Qo‘chqorova A. Hamza ijodida ma’rifatchilik va G‘arb ta’siri. – 2023.
- 7.O‘zbek adabiyoti tarixi. 2-jild. – Toshkent: Fan nashriyoti